

OGAHIY IJODIDA ISHQ TALQINI

1. Shaydullayeva Ro‘zinor

2. D.Z.Muxiddonova

1. 2-kurs, Malay-ingliz guruhi talabasi

2. Ilmiy rahbar: f.f.d., dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7732356>

Annotatsiya: Ushbu maqolada she‘riyatimizning yirik vakillaridan biri Muhammad Rizo Ogahiyning ijodida ishq mavzusiga alohida to‘xtalib o‘tildi. Ogahiy lirikasida ishq talqini “Yorima ayting” radifli g‘azali orqali ko‘rib chiqildi.

Ogahiy xalqimiz ma‘daniyati, adabiyoti va ilm-fani tarixida iste‘dodli shoir, mohir tarjimon, yirik muarrix, ma‘rifatparvar shaxs sifatida yorqin iz qoldirgan. Atoqli madaniyat arbobi, klassik she‘riyatning mohir ustasi, Xivadagi adabiy harakatning yuksak siymosidir. Ogahiy nihoyatda barakali irod qilgan. Shoirning “Ta‘viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli ulkan devoni bir necha janrlarda yaratilgan 20 ming misradan ziyod she‘rdan tarkib topgan. Ogahiy ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma‘shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg‘usi, sevgi haqidagi fikrlari egallaydi.

Ogahiy lirikasida ishq bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday tuyg‘u kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma‘shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar oshiqning, shu bilan birga, muallifning bu masalaga munosabati, oshiqning ishq bilan bog‘liq bo‘lgan turli tuyg‘ulari: visol, hijron, firoq, rashq, vafo va hakazo tusidagi tuyg‘ularini ifodalash orqali ko‘rinadi. Ogahiyning “Yorima ayting” radifli g‘azalida ham shunday munosabatlar bayon etilgan.

Ko‘nglum g‘amin, ey do‘stlarim yorima ayting,

Jonim alamin la‘li shakarborima ayting

Bu baytda shoir to‘g‘ridan to‘g‘ri do‘stlariga murojaat qiladi. Ya‘ni ey do‘stlarim, ko‘nglimning dardini, g‘amini borib yoringa ayting, jonimning alamini qizil labli, shirin so‘zli yoringa ayting –deydi.

Istab nigohi gushai chashmin topa olmay,

Bemorliqin ko‘zlari bemorima ayting.

Ushbu baytda shoir yorimning nigohini ko‘rishni istadim, lekin ko‘z qirini ham topa olmadim. Bu yerda ma‘shuqa oshiqqa hatto nazar tashlamaganligi va oqibatda oshiq ma‘shuqaning bee‘tiborligidan bemor bo‘lganligini va bu bee‘tiborlik yorni “ko‘zlari xasta” deb ta‘riflaydi.

Oshiqni ma‘shuqasining kiprigini hayol qilganda, tanasiga mingta o‘q sanchilayotganligini va bu holatni taniga ozor beruvchi yoriga aytishlarini quyidagi misralarda ifodalaydi.

Mujgon hayoli bila har lahza ming o‘q,

Sonchilg‘onini bu tani afgorima ayting.

Baytda mubolag'a san'atidan foydalanilgan, ya'ni mumtoz adabiyotimizda an'anaviy usulga aylangan kiprikni kamon nayzasiga o'xshatilgan.

Oshiq ma'shuqasi har nigoh tashlaganida uning kipriklari unga nayzadek sanchilayotganini, bu esa uning qalbiga jarohat yetkazgani ifodalangan. Quyidagi baytda esa bu qiynoqlarga chiday olmagan oshiqning holati tasvirlangan:

Ozorig'a ko'nglim chidamay, emdi o'lgumga,

Rozi erur ul sho'xi dilozorima ayting,

Ushbu misralarda oshiq bu qiynoqlarga chiday olmay, hatto o'lishga rozi ekanligini ko'ngliga ozor beruvchi yoriga aytishi so'raladi. Bu baytda oshiq ma'shuqadan ko'rayotgan qiynoqlari, jabr-u jafolari oldida o'lim hech qanday qadrga ega emasligi mohirona tasvirlangan.

Kelsun dog'i qatil aylasunu qonima qonsun,

Qotilvashu oshiq kushu xunxorima ayting.

Yuqoridagi bayt mazmuni shunday, shoir ul yor kelib meni qatl etsin va meni qonimga qonsin, xuddi qotildek oshiqni o'ldiruvchi qonxo'rimga ayting. Oshiq har qanday kimsaning qo'lida o'lishni emas, balki o'z ma'shuqasining qo'lida o'lishni xohlaydi. Maqtaga kelganda shoir do'stlariga qat'iy ravishda shunday deydi:

Ogahiy o'ltirsinu yo komini bersun,

Zinhor borib yori jafakorima ayting.

Ya'ni ma'shuqa kelib meni o'ldirsin yoki maqsadini aytsin, buni tezda borib jafakor yorimga ayting, deb aytadi. Oshiq ma'shuqasining maqsadini bila olmay qiynalib undan maqsadini aytishini yoki kelib uni o'ldirishini so'raydi. "Yorima ayting" radifli g'azalida Ogahiy bir qancha badiiy san'atlardan mohirona foydalangan. "Ey do'stlarim" - nido san'ati, "la'li shakarborim, ko'zlari bemorlig'im, parizodi vafodorim" - istiora, "qatl, qotilvash, qon, kushu, xunxor" - tanosib va mubolag'a san'atidan ustalik bilan foydalangan.

G'azalda oshiqning o'z yoriga - ma'shuqasiga bo'lgan muhabbati samimiy, ham nihoyatda chuqur ekanligi tasvirlangan. Oshiqning sevgi tuyg'ulari, orzulari nihoyat darajada tabiiy, bu tufayli o'quvchiga chuqur ta'sir qiladi. Bu tabiiy va reallik g'azalga uzoq umr baxsh etadi. Insonni haqiqiy hurlikka, ruhiy ruhiy kenglikka olib chiquvchi birgina vosita bor. U ham bo'lsa - ishq. Anashu ishq orqali kishi Oллоhga yetadi. Ogahiy ijodida ishq mavzusi shunday g'oyalarni ilgari suradi. Ogahiy she'riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning Otimsollar olami, tashbehu qiyoslar silsilasi o'ziga xos, yangicha. Shoir har san'atning, har bir detalning, ungacha ilg'amagan qirralarini, borilmagan ma'naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Ogahiy ijodining mavzu doirasi juda

keng. Lekin u qaysi mavzuda ijod qilmasin, ishqni chetlab o'tolmaydi. Ishq uning qalamida mavzusini yoritishda, g'oya mazmunini ilgari surishda asosiy badiiy vosita hisoblanadi.

Ogahiy she'riyatida ishq — iymon, e'tiqod, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuchdir. Shoir devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baho berganda, doimo insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ogahiy buyuk iste'dod egasi va g'azalnavis shoir. U o'z g'azallarida ishqni ikki xil talqin etadi - ilohiy ishq va insoniy ishq. Ogahiy lirikasida ham ishq-muhabbat yetakchi o'rinda turadi. U o'z ijodida she'riy san'atlardan ham mohirona va keng qo'llay olgan. Bu g'azallarini yanada pishiq, puxta, ta'sirchan va jozibadorligini ta'minlagan. Ogahiy bu kabi rang-barang tasvir vositalaridan foydalanish bilan o'z asarlariga badiiy sayqal bergan. Shoir ijodiyotining yuksak badiiy-estetik xususiyatlari bugungi kun yosh avlodlari va kutobxonlari uchun nihoyatda qimmatlidir.

References:

1. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? Toshkent, Sharq nashriyoti. 1999. 94
2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1964. B-347- 376
3. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. B-221-232
4. Omonov. Q Ogahiy hikmatlari. Toshkent: TDSHU, 2021.